



**XORAZM VOHASINING TURLI BIOTOPLARIDA UCHRAYDIGAN
MACROGLOSSINAE KENJA OILASINING TUR TARKIBI VA
BIOEKOLOGIYASI**

M. X. Bekchanova,
dotsent, Urganch davlat universiteti. Xorazm.

I. R. Avazmetova,
dotsent, Urganch davlat universiteti. Xorazm.

N. B. Latipova,
o'qituvchi, Urganch tumanidagi 6 maktab. Xorazm.

B. D. Jumadurdiyeva,
o'qituvchi, Urganch davlat universiteti. Xorazm

Kirish

Hozirgi kunda, O'zbekistonda hasharotlar sinfiga mansub turlar tarkibi 16 mingdan ziyod bo'lib, 30 turkumga birlashtirilgan (Насекомые Узбекистана, 1993; Красная книга Узбекистана, 2006, 2009, 2019). Dunyoda 206 turkumga mansub 1450 ga yaqin tur ma'lum.[6]

Xorazm vohasining Lepidoptera (Insecta: Lepidoptera) faunasini o'rganish tarixi ko'p marta muhokama qilingan. Biroq, ilgari berilgan umumiy ma'lumotlar kichik guruhlar, shuningdek, makro va mikrolepidopterlarning alohida tahlili va eskirgan ba'zi kam ma'lum bo'lgan nashrlar hisobga olinmaganligi sababli to'liq bo'lmagan. Tadqiqotlarimiz davomida Xorazm vohasining ayrim hududlaridan ushlangan tangachaqanotlilar turkumining Sphingidae oilasiga mansub Macroglossinae kenja oilasi vakillarining bioekologik xususiyatlari ochib berildi.

Ushbu kenja oila vakillari katta va o'rta o'lchamdagi o'ziga xos kapalaklar xisoblanadi. Old qanotlari cho'zilgan, orqa qanotlari oldingi qanotlarning yarmiga teng. Tana kuchli rivojlangan bo'lib, qorin odatda oxirigacha konus shaklida torayadi. Ko'krak va qorin qattiq, mahkam o'rnashgan tuklar bilan qoplangan.



Kapalaklar faol ovqatlanadilar, odatda gul yaqinida havoda yuradilar. Aksariyat turlar oqshom va erta tunda, juftlashish sodir bo'lganda faol bo'ladi.[1]

Material va metodikasi

Tungi tangachaqaqnotli hasharotlar yorug'lik nuriga uchub kelganligi sababli biz DRL lampalarining turli xil yorug'lik manbalari (Phillips-250 Vt va Phillips- TL 8W / 05 midalampalar) dan va simob lampalardan foydalandik. Elektr toki yo'q joylarda esa quyoshli batareykalar yordamida maxsus yorug'lik tuzoqlaridan (Naturaliste 150, UV Camelion 26W lampasi) keng foydalanildi. Maxsus yorug'lik tuzoqlarining ostiga gofrokartondan yasalgan tuxum saqlagich (fleyka) lar joylashtirilib, kapalaklarni uchib kelishi kuzatildi.

Tangachaqaqnotlilarni yig'ish va qayta ishlashda O.I.Merjeevskaya (1965), Kuzyakin A.P, (1993), I.M. Kirpichnikova (2001). Statistik tahlillar esa Sturgess (1882-1958) uslubiga asoslangan holda amalga oshirilgan. Aniqlash va sistematikasini tuzishda butun dunyo katologidan van Nieukerken;et al. (2011) taxanomiyasidan foydalanildi. [7], [4] Zoogeografik hududlarni aniqlash, chegaralarni belgilash A.F.Emelyanov usuli bo'yicha o'tkazildi.

Tadqiqotlar olib borilgan hududlar.

Ovshar-41°21'0. 07" N va 61° 6'37. 24" E

Shomoxo'lum-41°25'37.86"N va 60°20'22.49"E

Al- Xorazmiy-41°25'4. 05" N va 60°53'33. 81" E

Pitnak-41°12'54. 64" N va 61°20'29. 21" E

Ostona -41°23'35.88" N va 60°44'57.34" E

Shirinqo'ng'irod-41°44'1. 43"N va 60°30'35.12"E

Xonqaobod-41°30'7.81"N va 60°52'5.09"E

Qaramazi-41°31'4.39"N va 60°43'45.81"E

Tadqiqot natijalari

Materiallar 2024-2025 yillar davomida asosan bahor, yoz va kuz fasllarida o'rganilayotgan hududda (Xorazm vohasi hududlarida) stasionar va marshrutli



maydon bo'yicha yig'ildi va morfobiologik xususiyatlari hamda kapalakning uchrash miqdori o'rganildi.

Katta oila: Bombycoidea

Kenja oila: Macroglossinae

Triba: Dilophonotini

Avlod: Hemaris

1. *Hemaris fuciformis* (Linnaeus, 1758)

Sinonimlari: *Sphinx fuciformis* (L.1758), *S. variegata* (Allioni, 1766).

Aniqlangan joyi va muddati: Ovshar: 05.V. 2024, 28.VII. 2024; 1 ♂, 3 ♀. Shomoxo'lum: 06.VI. 2024; 2 ♂, 2 ♀. Al- Xorazmiy: 09.VI. 2024; 3 ♂.

Bionomikasi: Monovoltin. Kapitalining uchish vaqti: may – iyul. Qurtlarining faol davri iyuldan avgustgacha. Qurtlarining ozuqa o'simligi: *Prunus* va boshqa turlari. Mo'tadil – subtropik guruh, dendrobiont, oligofag, bahorgi – yozgi tur. Biotopi – antropogen. G'umbagi qishlab qoladi. Odatiy tur.[2]

Zoogeografik viloyati: Transpalearktik - Mo'tadil – subtropik.

Tarqalishi: Yevropa, G'arbiy Sibir, Sharqiy Sibir, Markaziy Osiyo, Sharqiy Osiyo, Janubiy – G'arbiy Osiyo, Janubiy– Sharqiy Osiyo, O'rta Osiyo, Shimoliy Afrika [3], [5].

Triba: Macroglossini

Avlod: Hyles

2. *Hyles hippophaes* (Esper, 1793)

Sinonimlari: *Deilephila insidiosa* (Ersh, 1874), *Celerio teriolensis* (Dan, 1929).

Aniqlangan joyi va muddati: Pitnak: 24.VIII. 2024; 4 ♂. Ostona: 28.VIII. 2024; 2 ♂, 1 ♀.

Bionomikasi: Bivoltin. Kapitalining uchish vaqti maydan to sentabrgacha, ikki nasl beradi. Qurtlarining faol davri iyun oxiridan iyul boshlarigacha. Qurtlarining ozuqa o'simligi: *Elaeagnus*. Mo'tadil – subtropik guruh, dendrobiont, monofag, bahorgi – yozgi – kuzgi tur. Biotopi – to'qay, antropogen. Qurtlik bosqichida qishlab qoladi. Kam uchraydigan tur.

Zoogeografik viloyati: Transpalearktik - Mo'tadil – subtropik.

Tarqalishi: Janubiy – G'arbiy Osiyo, Yevropa, G'arbiy Sibir, Sharqiy Sibir, Markaziy Osiyo, Janubiy – G'arbiy Osiyo, O'rta Osiyo [3], [5].

Avlod: *Theretra*

3. *Theretra alecto* (Linnaeus, 1758)

Sinonimlari: *Sphinx alecto* (Linnaeus, 1758), *Sphinx cretica* (Boisduval, 1827).

Aniqlangan joyi va muddati: Shirinqo'ng'irod: 07.VI. 2024, 26.VI. 2024; 1 ♂, 1 ♀. Xonqaobod: 09.VI. 2024; 3 ♂.

Bionomikasi: Polivoltin. Kapalagining uchish vaqti: may – iyul. Qurtlarining faol davri iyuldan avgustgacha. Qurtlarining ozuqa o'simligi: *Prunus* va boshqa turlari. Mo'tadil – subtropik guruh, dendrobiont, oligofag, bahorgi – yozgi tur. Biotopi – antropogen. G'umbagi qishlab qoladi. Ko'p uchraydigan tur.

Zoogeografiyasi: Transgolarктиk - Mo'tadil – subtropik.

Tarqalishi: AQSh, Markaziy Osiyo, Sharqiy Osiyo, Janubiy–G'arbiy Osiyo, Janubiy Sharqiy Osiyo, O'rta Osiyo [3], [5].

Avlod: *Deilephila*

4. *Deilephila elpenor* (Linnaeus, 1758)

Sinonimlari: *Pergessa elpenor* (Linnaeus, 1758).

Aniqlangan joyi va muddati: Shirinqo'ng'irod: 07.VI. 2024, 26.VI. 2024; 2 ♂, 7 ♀. Xonqaobod: 17.VI. 2024, 20.VI. 2024; 1 ♂, 1 ♀. Qaramazi: 21.V. 2025, 30.VI.

Bionomikasi: Bivoltin. Kapalagining uchish vaqti may oyining o'rtasidan iyul oyigacha. Qurtlarining faol davri iyun-avgust. Qurtlarining ozuqa o'simligi: *Prunus* va *Alnus*. Mo'tadil – subtropik guruh, dendrobiont, polifag, bahorgi – yozgi tur. Biotopi – antropogen. G'umbagi qishlab qoladi. Ko'p uchraydigan tur.

Zoogeografik viloyati: Transgolarктиk - Mo'tadil – subtropik.

Tarqalishi: AQSh, Sharqiy Osiyo, Janubi – g'arbiy Osiyo, Janubiy- sharqiy Osiyo, O'rta Osiyo [3], [5].

Xulosa

Xorazm vohasining antropogen va to'qay biotoplarida uchraydigan Sphingidae oilasi Macroglossinae kenza oilasiga mansub 4 ta turning faunasi, biologik va ekologik xususiyatlari o'rganildi. O'rganilgan turlar asosan 2 ta triba va 4 ta avlodga mansub bo'lib, transgolarктиk va transpalearктиk turlar xisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Брандт Э. К. Бражники // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.
2. Бекчанов Х.У., Бекчанова М.Х. Бражники (Lepidoptera, Sphingidae) Бадай-Тугайского государственного заповедника. «Проблемы рационального использования природных ресурсов Южного Приаралья» материалы Республиканской научно-практической конференции. - Нукус, 2007. - С. 37-38.
3. Горбунов П.Ю. Высшие чешуекрылые (Macrolepidoptera) пустынь и южных степей Западного Казахстана. - Москва, 2011. - С.101.
4. Каабак Л. В., Сочивко А. В. Бабочки мира. — М.: Аванта+, 2003. ISBN 5-94623-008-5.
5. Pungeler R. Neue Macrolepidopteren aus Central-Asien, Deut. Ent. Zeitschr., "Iris", XII, tt. 95-106, tt. VIII-IX. –Berlin, 1899. - P.288-299, 177-191.
6. Torayeva Z.R., Mirzayeva G.S., Xolmatov B.R. Entomologiya. O'quv qo'llanma. Namangan-2024. – B. 185.
7. ↑ van Nieukerken; et al. (2011). «Order Lepidoptera Linnaeus, 1758. In: Zhang, Z.-Q. (Ed.) Animal biodiversity: An outline of higher-level classification and survey of taxonomic richness» (PDF). Zootaxa. 3148: 212—221. doi:10.11646/zootaxa.3148.1.41.